<b>Toshkent shahri</b>	<b>1698506,2</b>	<b>1803622,9</b>	<b>2575167,2</b>	<b>606420,0</b>	<b>475398,0</b>
Bektemir	79571,5	35695,3	83795,8	4939,7	5,6
Uchtepa	48005,2	168988,1	100620,4	27007,9	19037,3
Yunusobod	93603,3	146424,3	315664,3	78122,4	133743,2
Mirzo Ulug'bek	130175,8	100003,1	204397,8	64150,6	3148,0
Mirobod	161605,1	213486,7	675358,4	85326,5	224747,2
Shayxontohur	85716,6	313212,7	167061,3	37577,7	21320,4
Olmazor	292806,3	174819,5	112261,3	37255,1	3019,4
Sergeli	61815,3	114691,7	154502,6	5626,8	1889,1
Yakkasaroy	211837,6	106211,9	181356,3	65988,0	1578,4
Yashnobod	213650,1	199302,6	324886,2	119113,1	28460,4
Yangixayot	11845,8	13676,1	36642,5	2100,0	296,9
Chilonzor	302468,7	209548,2	204068,7	76544,0	25111,1
Tumandan tashqari	5404,9	7562,7	14551,6	2668,1	13041,0




## VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2021-yilning yanvar–sentabr oylarida 12419 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 115,1 % ni tashkil qildi.

Eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 39,1 %), sanoat tarmog‘ida (13,2 %), qurilish tarmog‘ida (9,6 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (5,8 %), axborot va aloqada (5,5 %), tashish va saqlash (3,4 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (2,0 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,0 %) va boshqa tarmoqlar (20,4 %) tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda**



2021- yilning yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 21101,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 35,0 %) ni tashkil qiladi;

– investitsiyalar hajmi 18622,2 mlrd.so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 48,0 %) o‘zlashtirildi va 2020- yilning yanvar–sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,2 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 12140,4 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 64,6 %) va 2020- yilning yanvar–sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,6 % ni tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 29981,1 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 40,5 %) 2020 -yilning yanvar– sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,9 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 80352,9 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 60,3 %) 2020- yilning yanvar– sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,6 % tashkil qildi;

– avtomobil transportida 138252,4 ming yo‘lovchi tashilib (umumiy yo‘lovchi tashishdagi ulushi 83,9 %) 2020- yilning yanvar– sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 111,5 % ni tashkil qildi;

– savdo hajmi 25363,4 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiy chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 60,8 %) 2020- yilning yanvar–sentabrga nisbatan o‘shish sur‘ati 119,8 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 457,1 mln.AQSh dollarni (umumiy eksport hajmidagi ulushi 16,4%) tashkil qildi.

### **Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi**

*(umumiy hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)*


Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (2901,8 mlrd.so‘m), Chilonzor (2873,4 mlrd. so‘m), Yashnobod (2754,4 mlrd. so‘m), Sergeli (2311,9 mlrd.so‘m), Yunusobod (1784,8 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (1653,8 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (1510,4 mlrd.so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Uchtepa (1283,4 mlrd. so‘m), Bektemir (1291,6 mlrd. so‘m), Mirobod (1040,8 mlrd.so‘m) Shayxontohur (772,2 mlrd. so‘m) va Yangihayot (922,9 mlrd. so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

**2021 -yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi**




**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Chilonzor (3061,1 mlrd. so'm), Uchtepa (3940,3 mlrd. so'm), Yunusobod (3077,4 mlrd. so'm), Bektemir (2502,2 mlrd. so'm), Shayxontohur (2473,1 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2399,1 mlrd. so'm) va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Mirobod (1441,6 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (1690,6 mlrd. so'm) Olmazor (1555,6 mlrd. so'm) Yashnobod (1788,3 mlrd. so'm), Sergeli (1114,2 mlrd. so'm) va Yangihayot (319,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Mirzo Ulug'bek (1638,0 mlrd. so'm), Yashnobod tumani (1555,5 mlrd. so'm), Yunusobod (1257,8 mlrd. so'm), Yakkasaroy tumani (1264,4 mlrd. so'm) va Mirobod tumani (1237,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Chilonzor tumani (926,6 mlrd. so'm), Uchtepa (642,0 mlrd. so'm), Shayxontohur (850,4 mlrd. so'm), Olmazor (863,5 mlrd. so'm) Sergeli tumani (901,4 mlrd. so'm) Bektemir tumani (542,4 mlrd. so'm) va Yangihayot tumani (461,1 mlrd. so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.


### 2021-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi ulushi



Investitsiya sohasi bo'yicha eng yuqori hajmlar Yunusobod (2788,0 mlrd. so'm), Yakkasaroy (1698,5 mlrd. so'm), Olmazor (2109,0 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (2350,1 mlrd.so'm) Yashnobod (1458,0 mlrd. so'm) va Mirobod (2020,5 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Sergeli (1107,2 mlrd.so'm), Shayxontohur (1010,8 mlrd. so'm), Chilonzor (1236,3 mlrd. so'm), Uchtepa (1028,3 mlrd. so'm), Bektemir (1264,6 mlrd. so'm), Yangihayot (526,5 mlrd. so'm) va tumanlarida investitsiya hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Chilonzor (3669,5 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (3264,7 mlrd. so‘m), Yunusobod (2991,4 mlrd. so‘m), Mirobod (2437,5 mlrd. so‘m), Shayxontohur (2853,9 mlrd. so‘m) va Yakkasaroy (3017,4 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Uchtepa (2547,7 mlrd.so‘m), Bektemir (1919,0 mlrd. so‘m), Olmazor (2524,8 mlrd.so‘m), Yashnobod (2439,0 mlrd. so‘m) Sergeli (1410,1 mlrd. so‘m) va Yangihayot (906,0 mlrd. so‘m) tumanlari hisoblanadi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Chakana savdo</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>35,0</b>	<b>64,6</b>	<b>40,5</b>	<b>60,8</b>
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	30,4	74,4	81,1	88,9
Mirzo Ulug‘bek	44,8	73,4	43,4	68,2
Mirobod	21,8	67,6	29,5	48,1
Olmazor	71,7	54,0	38,2	54,7
Sergeli	51,1	88,9	38,3	30,2
Uchtepa	33,1	30,4	55,7	89,7
Chilonzor	50,7	64,7	41,3	51,6
Shayxontohur	20,6	54,6	33,4	58,3
Yunusobod	55,1	48,3	27,0	60,3
Yakkasaroy	41,6	90,8	45,4	62,8
Yashnobod	16,3	92,0	50,4	57,6
Yangihayot	46,6	78,0	90,8	99,5

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (46,6 %), Olmazor (71,7 %), Chilonzor (50,7 %), Yunusobod (55,1%), Sergeli (51,1 %), Yakkasaroy (41,6 %), Mirzo Ulug‘bek (44,8 %), Bektemir (30,4 %), Uchtepa (33,1 %), Shayxontohur (20,6 %), Mirobod (21,8 %) va Yashnobod (16,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Yangihayot (78,0 %) Sergeli (88,9 %), Yashnobod (92,0 %), Yakkasaroy (90,8 %), Bektemir (74,4 %), Mirobod (67,6 %), Chilonzor (64,7 %), Olmazor (54,0 %), Mirzo Ulug‘bek (73,4 %), Shayxontoxur (54,6 %), Yunusobod (48,3 %) va Uchtepa (30,4 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yangihayot (90,8 %) Bektemir (81,1 %), Uchtepa (55,7 %), Yashnobod (50,4 %), Yakkasaroy (45,4 %), Mirzo Ulug‘bek (43,4 %) Chilonzor (41,3 %), Sergeli (38,3 %), Olmazor (38,2 %), Shayxantohur (33,4 %), Mirobod (29,5 %), Yunusobod (27,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Yangihayot (99,5 %), Uchtepa (89,7 %), Bektemir (88,9 %) Mirzo Ulug‘bek (68,2 %), Yakkasaroy (62,8 %), Shayxontoxur (58,3 %), Olmazor (57,7 %), Yashnobod (57,6 %), Chilonzor (51,6 %), Mirobod (48,1 %) va Sergeli (30,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2021-yilning yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 49,0 % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar–sentabr 52,3 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2021-yil yanvar–sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 3225 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma‘lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 68,4 % qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda sanoat sohasida 26,4 % qulay va 68,4 % esa qoniqarli, savdo sohasida 32,7 % va 60,9 %, xizmatlar sohasida 29,7 % va 63,5 % ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 7,1%, xizmatlarda 6,8%, qurilishda 8,2 %, savdoda 6,4 % va sanoatda 5,2 % ni tashkil qildi.

#### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash 2021- yil yanvar-sentabr oylarida, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

## IX. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI<sup>1)</sup>

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-avgust oylari uchun korxonalar va tashkilotlar tomonidan 4982,6 mlrd. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi. 2020-yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 3332,8 mln.so'mga ko'paygan.

### 2021-yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yirik tijorat tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd. so'm</i>	<i>2020- yilning yanvar-avgustga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>4982,6</b>	<b>3,0 m.</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1,1	88,4
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	282,3	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	2658,2	152,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-300,1	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	4,1	-
Qurilish	81,5	-
Savdo	705,0	165,5
Tashish va saqlash	-204,1	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-10,4	-
Axborot va aloqa	599,5	90,9
Moliya va sug'urta faoliyati	208,7	146,8
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	81,6	199,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	478,9	92,6
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	115,8	2,3 m.
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	160,2	71,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50,5	3,1 m.
Ta'lim	110,5	5,3 m.
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-76,8	-
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	36,1	54,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yirik tashkilotlarda ko'rilgan foydaning asosiy qismini ishlab chiqaradigan sanoat yo'nalishidagi tashkilotlar tashkil etmoqda.



**Toshkent shahrida yirik tijorat tashkilotlarining  
2021-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida  
yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yilning yanvar-avgustga nisbatan, % da</i>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>4982,6</b>	<b>3,0 m</b>
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	336,1	129,5
Mirzo Ulug‘bek	272,8	2,7 m
Mirobod	2640,8	157,2
Olmazor	302,1	177,4
Sergeli	442,2	2,9
Uchtepa	57,3	35,7
Chilonzor	696,6	4,9 m
Shayxontohur	452,4	-
Yunusobod	573,2	58,3
Yakkasaroy	-1768,2	-
Yashnobod	966,3	121,4
Yangiheyot	11,0	18,1

Toshkent shahrining yirik tijorat tashkilotlari bo‘yicha – 4982,6 mlrd. so‘m, tumanlar kesimida foydaning asosiy qismi Mirobod – 2640,8 mlrd. so‘m, (jami foydaning 53,0 %), Yashnobod – 966,2 mlrd. so‘m va Chilonzor– 696,6 mlrd.so‘m tumanlariga to‘g‘ri keladi.

**2021- yilning yanvar-avgustda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
zarar ko'rgan yirik tijorat korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar summasi</i>	
		<i>mln. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>267</b>	<b>4687466,0</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	25	100585,1	2,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	4	725684,3	15,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	6	923866	19,7
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	1	498,4	0,01
Qurilish	15	195571,6	4,2
Savdo	70	430044,3	9,2
Tashish va saqlash	23	1551923,1	33,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10	50379,9	1,1
Axborot va aloqa	21	451322,4	9,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	4	4551,7	0,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	11	44727	1,0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	17	48178,6	1,0
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	17	13361,8	0,3
Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta'minot	3	1379,1	0,03
Ta'lim	19	47377,1	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1149,8	0,02
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	14	85256	1,8
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	3	11609,8	0,3

**2021- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
zarar ko'rgan yirik tijorat korxonasi va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(jami nisbatan foiz hisobida)



Zararlarning asosiy qismi tashish va saqlash – 1551,9 mlrd. so‘m (jami zararning 33,1 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 924,0 mlrd. so‘m (jami zararning 19,7 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 725,7 mlrd. so‘m (jami zararning 15,5%), Axborot va aloqa – 451,3 mlrd. so‘m (jami zararning 9,6 %) faoliyat turlarini tashkil etadi.

**2021-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan  
yirik tijorat korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi jamiga nisbatan, % da</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>267</b>	<b>100,0</b>	<b>4687466,0</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	11	0,8	37815,1
Mirzo Ulug'bek	24	1,9	89317,7
Mirobod	31	3,7	176303,6
Olmazor	18	0,6	27339,7
Sergeli	12	0,4	16584,9
Uchtepa	12	2,8	131378,1
Chilonzor	28	2,4	111322,4
Shayxontohur	29	9,8	458834,4
Yunusobod	43	14,3	670876,8
Yakkasaroy	27	51,2	2399377,8
Yashnobod	25	11,6	545343,8
Yangihayot	7	0,5	22971,7

**Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2021-yil 1-sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln. so'm</i>	<i>undan:</i>			<i>Muddati o'tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idora viy</i>	
<b>Jami</b>	<b>1158750,9</b>	<b>377817,1</b>	<b>65898,5</b>	<b>693188,6</b>	<b>1,4</b>
Axborot va aloqa	2003,9	1895,2	108,8	-	0,1
Sanoat	103101,4	80937,1	4751	846,3	1,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	686768,1	1308,4	4194,8	680450,6	7,4
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	146338,9	146338,9	-	-	49,8
Qurilish	56701,9	34061,4	11052,9	11557,7	0,9
Savdo	54144,9	37485,5	12522,9	-	0,4
Tashish va saqlash	3287,2	3008,8	-	272,3	0,01
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	3179,1	2520	306,6	61,8	0,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	24697,2	24462	233,1	-	0,7
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	6290,3	6283,6	6,7	-	2,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	220	-	220	-	1,1
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	50	-	50	-	0,01
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	71968	39516,2	32451,7	-	5,1

Iqtisodiyot tarmoqlari, tumanlarda va idoralarda muddati o'tgan qarzdorlikni tugatish bo'yicha yetarlicha tizimli ishlar tashkillashtirilmaganligi natijasida, muddati o'tgan debitor qarzdorlikning yuqori sur'atda o'sishi saqlanib qolmoqda.

2021-yil 1-sentabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 84749,9 mlrd. so'm, undan muddati o'tgan – 1158,8 mlrd. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,4 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida yirik tijorat korxonalarida 2021- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mln. so'm	undan:				Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		etkazib beruvchilar va pudratчилarga	budjetga to'lovlar	davlat maqsadli fondlariga to'lovlar	ichki idoraviy	
<b>Jami</b>	<b>1657984,5</b>	<b>822205,6</b>	<b>375121,1</b>	<b>7702,9</b>	<b>4948,8</b>	<b>1,6</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	31939,3	21607,2	-	-	-	0,3
Savdo	81000,5	15786	-	-	3492,1	0,5
Qurilish	13201,7	11116,8	-	-	1456,7	0,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	766860,2	766845	-	-	-	6,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	720,2	720,2	-	-	-	0,5
Tashish va saqlash	3749	3658,6	-	-	-	0,01
Axborot va aloqa	12423,9	99,9	113,1	-	-	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	504,9	397,7	-	-	-	0,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	747584,8	1974,2	375008	7702,9	-	2,3

2021 -yil 1- sentabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 103090,0 mlrd. so'm, undan muddati o'tgan – 1658,0 mlrd. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,6 % ni tashkil etdi.

## X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI *(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 111,6 mingtani tashkil qilib, shundan 107,5 mingtasi yoki 96,2 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro'yxatga olinganlarning umumiy sonidan 28,8 %), sanoat (15,8 %), qurilish (8,3 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,9 %) sohalariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar taqsimoti (2021-yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>111664</b>	<b>100,0</b>	<b>107549</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	1098	1,0	1039	1,0
Sanoat	17513	15,7	16870	15,7
Qurilish	9267	8,3	8966	8,3
Savdo	32039	28,7	30985	28,8
Tashish va saqlash	4366	3,9	4242	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7603	6,8	7198	6,7
Axborot va aloqa	4655	4,2	4481	4,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2025	1,8	1975	1,8
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	33098	29,6	31793	29,6

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



Toshkent shahrida ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p miqdori 28,7% savdo sohasida, 15,8% sanoat sohasida, 8,3 % qurilish sohasida, 6,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % axborot va aloqa, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida va 29,6 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlarning soni 97,9 mingta bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 80,0 mingta, xususiy korxonalar – 13,1 mingta, oilaviy korxonalar – 3,5 mingta, unitar korxonalar – 0,5 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar – 0,2 mingta va 0,4 mingta boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, birlikda**



2021-yil yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonasi va tashkilotlarning soni 13,0 mingtani tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1956 taga ko'pdir.


Jami yangi tashkil etilgan korxonasi va tashkilotlarning eng ko'p qismi Chilonzor (1656 ta), Mirzo Ulug'bek (1358 ta), Yunusobod (1581 ta), Olmazor (1301 ta), Shayxontohur (1265 ta), Yashnobod (1120 ta) va Uchtepa (1123 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi. Aksincha, Mirobod (1034 ta), Yakkasaroy (1001 ta), Sergeli (734 ta), Yangiheyot (403 ta) hamda Bektemir (260 ta) tumanlarida korxonasi va tashkilotlar tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(birlikda)

	2021- yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatga olinganlar	2021- yil yanvar–sentabr oylarida	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Toshkent shahar</b>	<b>111664</b>	<b>13016</b>	<b>2266</b>
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	10044	1123	247
Bektemir	2582	260	55
Yunusobod	14503	1581	278
Mirzo-Ulug'bek	12542	1538	201
Mirobod	9247	1034	372
Shayxontohur	10942	1265	179
Olmazor	11422	1301	172
Sergeli	5541	734	110
Yakkasaroy	9540	1001	213
Yashnabod	8787	1120	139
Yangihayot	2284	403	27
Chilonzor	14230	1656	273

**2021 -yil 1-oktabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) birlikda



**2021-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisi)




### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarning soni 96,6 mingdan ziyodni tashkil etgan (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz). Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,1 % ga oshgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 12365 birlik Chilonzor, 12235 birlik Yunusobod, 10772 birlik Mirzo Ulug'bek, 10258 birlik Olmazor, 9041 birlik Uchtepa, 9131 birlik Shayxontohur hamda 8480 birlik Yakkasaroy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotganlarning eng kam qismi esa 7693 birlik Mirobod, 7415 birlik Yashnobod, 4937 birlik Sergeli, 2330 birlik Bektemir hamda 1990 birlik Yangiheyot tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

#### 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan jami 96647 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 30706 birligi (31,7 %) – savdoda, 16690 birligi (17,3 %) – sanoatda, 8864 birligi (9,2 %) – qurilishda, 7156 birligi (7,4 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 4364 birligi (4,5 %) – axborot va aloqa sohasida, 4157 birligi (4,3 %) – tashish va saqlashda, 1710 birligi (1,8 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1025 birligi (1,1 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida, shuningdek 21975 birligi (22,7 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, foizda**  
2021-yil 1-oktabr holatiga




Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari turlariga to'g'ri keladi.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatga olingan korxonalar soni 8100 birlikni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1226 taga yoki 18,4 % ga o'sgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatga olingan korxonadan 3182 tasi qo'shma korxonalar, 4918- tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o'sish dinamikasi, birlikda




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda 2021-yil 1-oktabr holatiga



2021-yil yanvar–sentabr oylarining yakuni bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi 1122 ta korxonalar yangi tashkil qilindi. Korxonaning soni o'tgan yilga nisbatan 387 taga ko'p. Bunda, Rossiya federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokidagi korxonalar soni – 188 tani, Turkiya Respublikasi – 206 tani, Qozog'iston Respublikasi – 213 tani, Xitoy Xalq Respublikasi – 117 tani hamda Koreya Respublikasi – 41 tani tashkil qildi. Shuningdek, 2021 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari hamkorlik qilishga qiziqish bildirdilar.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda 2021- yil yanvar–sentabr oylarida



Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to'g'ri keladi, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari faoliyat turiga to'g'ri keladi.


### Oilaviy korxonalar soni

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3765 birlikni tashkil etdi, ulardan 3589 birlik yoki 95,3 % faoliyat yuritmoqda.






### Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining soni ko'rilganda oilaviy korxonalarining 36,7 % yoki 1318 tasi sanoat, 24,6 % yoki 883 tasi savdo, 17,8% yoki 639 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,6 % yoki 93 tasi qishloq o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,6 % yoki 56 tasi axborot va aloqa, 1,4 % yoki 51 tasi qurilish, 1,5 % yoki 54 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 37 tasi tashish va saqlash hamda 12,8 % yoki 458 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelmoqda.

### 2021-yil 1- oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, foizda



2021-yil 1-oktabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini ko'rilganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi.

## XI. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**Toshkent shahri bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda  
kichik tadbirkorliksiz, qayta hisoblangan, ming so‘m)


	2020 -yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>3772,7</b>	<b>4425,6</b>	<b>117,3</b>
<i>shundan:</i>			
Uchtepa	2732,9	3422,9	125,2
Bektemir	3104,4	4326,0	139,4
Yunusobod	4321,5	5230,7	121,0
Mirzo Ulug‘bek	3529,8	4051,6	114,8
Mirobod	4415,8	5045,0	114,2
Shayxontohur	4212,2	5153,6	122,3
Olmazor	2996,2	3586,3	119,7
Sergeli	2772,3	3562,8	128,5
Yakkasaroy	4134,7	4088,4	98,9
Yashnobod	3903,6	3849,0	98,6
Yangihayot	-	2419,1	-
Chilonzor	3385,8	4088,3	120,7

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi**  
( qishloq xo'jaligi korxonalarini hamda  
kichik tadbirkorlikliksiz, qayta hisoblangan, ming so'm)

	2021- yil yanvar- sentabr	Toshkent shahridagi o'rtacha oylik ish xaqiga nisbatan, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>4425,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	4192,9	94,7
Qurilish	3684,1	83,2
Savdo	3324,3	75,1
Tashish va saqlash	4568,8	103,2
Axborot va aloqa	6427,0	145,2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	10973,9	248,0
Ta'lim	3253,1	73,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2362,5	53,4
Boshqa faoliyat turlari	4658,7	105,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish xaqining eng yuqori darajasi moliyaviy va sug'urta faoliyatida – 10973,9 ming so'm (Toshkent shahridagi o'rtacha oylik ish haqidan 248,0 %ga), axborot va aloqa – 6427,0 ming so'm (145,2 % ga), boshqa faoliyat turlarida – 4658,7 ming so'm (105,3 % ga) tashkil etganini kuzatishimiz mumkin.

### 2021-yil yanvar-sentabr oylarida



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish xaqining eng past darajasi ta'limda 3253,1 ming so'm, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2362,5 ming so'm kuzatildi.

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilning 1-oktabr holatiga Toshkent shahri doimiy aholisi soni 2840,8 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 146,4 ming kishiga yoki 5,4 % ga o'sdi.


### Toshkent shahri tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2021- yilning 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2840,8</b>	<b>2840,8</b>	-	<b>105,4</b>	<b>105,4</b>	-
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	283,9	283,9	-	102,0	102,0	-
Bektemir	48,6	48,6	-	154,6	154,6	-
Yunusobod	356,9	356,9	-	101,4	101,4	-
Mirzo Ulug'bek	308,8	308,8	-	108,4	108,4	-
Mirobod	145,2	145,2	-	101,7	101,7	-
Shayxontohur	352,8	352,8	-	101,3	101,3	-
Olmazor	383,1	383,1	-	101,6	101,6	-
Sergeli	137,0	137,0	-	129,6	129,6	-
Yakkasaroy	123,5	123,5	-	101,5	101,5	-
Yashnobod	278,9	278,9	-	107,8	107,8	-
Yangihayot	157,0	157,0	-	118,3	118,3	-
Chilonzor	265,1	265,1	-	107,1	107,1	-

Toshkent shahri tumanlari kesimida 2021-yil 1-oktabr holatiga eng ko‘p aholi soni Olmazor tumanida 383,1 ming kishini (Toshkent shahri aholi sonidagi ulushi (13,5 %), Yunusobod tumanida 356,9 ming kishini (12,6 %), Shayxontohur tumanida 352,8 ming kishini (12,4 %) va Mirzo Ulug‘bek tumanida 308,8 ming kishini (10,9 %) tashkil etdi.

### **Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**

*(2021-yil 1-oktabr holatiga Toshkent shahri jami aholisiga nisbatan, foizda)*




**Toshkent shahrida aholining tabiiy harakati  
ko'rsatkichlari va koeffitsiyentlari  
(yanvar-sentabr)**

Ko'rsatkichlar	Kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2020-yil	2021-yil	2020-yil	2021-yil
Tug'ilganlar	39619	46708	20,3	22,2
O'lganlar	16214	15059	8,3	7,2
shu jumladan: 1 yoshgacha o'lgan bolalar	500	520	13,0	12,0
Nikox (birlik)	14136	16610	7,2	7,9
Ajrim (birlik)	2746	4193	1,4	2,0

**Tug'ilish.** 2021-yil yanvar-sentabr oylarida 46708 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, 2020- yilning mos davriga (39619 ta bola) nisbatan 7089 ta bolaga ko'paydi, tug'ilish koeffitsiyenti 22,2 promilleni tashkil etdi.

**Aholining tug'ilish koeffitsiyenti  
(yanvar-sentabr oylarida, 1000 aholiga, promille)**



Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi Sergeli (23,2 promilledan 26,5 promillega), Bektemir (25,4 promilledan 32,6 promillega), Shayxontohur (18,4 promilledan 21,6 promillega), Uchtepa (23,2 promilledan 26,5 promillega), Yakkasaroy (13,0 promilledan 15,1 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha tug'ilish koeffitsiyentining kamayishi tumanlarda kuzatilmadi.


**O'lim.** 2021-yil yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 15,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan ( minus 1,1 ming kishi) ga kamaydi, mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 7,2 promilleni tashkil etdi (2020 - yil yanvar-sentabr 8,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti yuqori darajasi Mirobod (8,7 dan 8,8 promillega), Mirzo-Ulug'bek (7,6 dan 7,8 promillega) va Yakkasaroy (6,3 dan 6,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

O'lim koeffitsiyentining past darajasi Shayxontoxur (7,5 dan 5,6 promillega), Chilonzor (8,2 dan 7,6 promille) tumanlarida qayd etildi.

Ro'yxatga olingan jami o'lganlarning 58,5 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,9 % o'simtalardan, 3,1 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,8 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,4 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 11,8 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 6,5 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlarning asosiy o'lim sababi bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foizda)**






Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-sentabr oylarida 1 yoshgacha bolalar o'limi 0,5 ming nafarni tashkil etib, go'daklar o'limi ko'effitsiyenti 12,0 promilleni (2020 yil yanvar-sentabr – 13,0 promille bo'lgan) tashkil etdi.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha jami o'lgan bolalarning 54,8 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 28,9 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,3 % tug'ma anomaliyalardan, 0,2 % ovkat hazm kilish a'zolari organlaridan, 1,9 % baxtsiz xodisa, zaxarlanish va jaroxatlanishlardan, 4,4 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 7,5 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikoh va ajrimlar.** 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 16,6 mingta nikoh va 4,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish ko'effitsiyenti 7,9 promilleni (2020 yil yanvar-sentabr 7,2 promille bo'lgan) va nikohdan ajralish ko'effitsiyenti 2,0 promilleni (2020- yil yanvar-sentabr 1,4 promille bo'lgan) tashkil etdi.

**Nikoh tuzish va nikohdan ajralishlar ko'effitsiyentlari**  
(2021-yil yanvar-sentabr, 1000 aholiga, promille)




Nikoh tuzish ko'effitsiyentining sezilarli darajada kamayishi Sergeli (8,3 dan 6,4 promillega) tumanida kuzatildi.

**Nikoh va ajrimlar soni**  
(yanvar-sentabr)

(birlikda)

	<i>Nikohlar</i>		<i>Ajrimlar</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021 -yil</i>	<i>2020 -yil</i>	<i>2021- yil</i>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>14136</b>	<b>16610</b>	<b>2746</b>	<b>4193</b>
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	1705	1962	250	388
Bektemir	266	341	61	88
Yunusobod	1980	2272	361	554
Mirzo Ulug‘bek	1188	1431	322	428
Mirobod	745	804	173	292
Shayxontohur	1776	1955	290	401
Olmazor	2070	2173	327	478
Sergeli	1271	662	281	253
Yakkasaroy	559	1046	118	189
Yashnobod	1221	1615	292	483
Yangihayot	-	651	-	217
Chilonzor	1355	1698	271	422


**Tumanlar kesimida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida  
nikohlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**Nikoh.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikoh tuzish darajasi Yunusobod tumanida 2272 ta, Olmazor tumanida 2173 ta va Uchtepa tumaniga 1962 ta to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikoh tuzish darajasi 341 ta Bektemir, 651 ta Yangihayot va 662 ta Sergeli tumanlariga to'g'ri keladi.

**Tumanlar kesimida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida nikohdan  
ajralishlar soni bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**Ajrim.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, tumanlar bo'yicha eng yuqori nikohdan ajralishlar darajasi 554 ta Yunusobod, 478 ta Olmazor va Yashnobod 483 ta tumanlariga to'g'ri keladi.

Tumanlar bo'yicha eng kam nikohdan ajralishlar darajasi 88 ta Bektemir, tumaniga to'g'ri keladi.

**Aholi migratsiyasi**  
(yanvar-sentabr)

(kishi)


	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2020-y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2020-y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2020-y.</i>	<i>2021- y.</i>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>63466</b>	<b>89841</b>	<b>3796</b>	<b>58854</b>	<b>59670</b>	<b>30987</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	1834	6664	468	5490	1366	1174
Bektemir	640	1276	96	1517	544	-241
Yunusobod	5045	6966	450	5715	4595	1251
Mirzo Ulug'bek	7267	7319	477	5033	6790	2286
Mirobod	4022	4386	240	3094	3782	1292
Shayxontohur	2869	4724	282	4753	2587	-29
Olmazor	6765	5655	394	4940	6371	715
Sergeli	10312	8898	481	13132	9831	-4234
Yakkasaroy	1607	3550	145	2602	1462	948
Yashnobod	13277	8794	373	4635	12904	4159
Yangihayot	-	23433	-	1209	-	22224
Chilonzor	9828	8176	390	6734	9438	1442

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 89,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 58,9 ming kishini tashkil etdi.

Shunga muvofiq, migratsiya sal'dosi plyus 30,9 ming kishini tashkil etib, 2020 -yilning mos davrida 59,7 ming kishini tashkil etgan.

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Yangihayot (plyus 22,2), Mirzo Ulug'bek (plyus 2,3) tumanlarida qayd etildi.

**Aholining tabiiy va mexanik harakatlari to'g'risida ma'lumot**  
(2021- yil yanvar-sentabr, 1000 aholiga, promille)





**TOSHKENT SHAHRINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2021-YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas'ul:  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi  
tel. (71) 203-88-07 (08)*

**Buyurtma raqami №4**

**Tiraj \_\_\_\_ nusxa**

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Toshkent sh., Amir Temur shoh ko'chasi, 11 uy**